

**MOLIYAVIY-HUQUQIY JAVOBGARLIK VA UNING TURLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA**

*Termiz davlat universiteti  
Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi  
Rayxona Raxmonova Nabijon qizi  
Yuridik fakulteti Jinoyat huquqi va  
fuqorolik protsessi kafedrasi o'qituvchisi  
Nomozov Xusan Axmat o'g'li*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada moliyaviy-huquqiy javobgarlik tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari va turlari nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etiladi. Milliy qonunchilikdagi moliya-huquqiy sanksiyalarning qo'llanilish mexanizmlari tahlil qilinib, ularning boshqa huquqiy javobgarlik turlaridan (ma'muriy, jinoiy) farqli jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada rivojlangan xorijiy davlatlarning ushbu sohadagi ilg'or tajribasi qiyosiy o'rganilib, O'zbekiston Respublikasining moliya tizimini takomillashtirish, sanksiyalar mutanosibligini ta'minlash va huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy javobgarlik, moliyaviy sanksiya, soliq huquqbuzarligi, byudjet intizomi, qiyosiy-huquqiy tahlil, xorijiy tajriba, moliyaviy-huquqiy norma, javobgarlik turlari.

**ABSTRACT :** This article examines the concept of financial and legal liability, its specific features, and types from theoretical and practical perspectives. The mechanisms for applying financial and legal sanctions in national legislation are analyzed, highlighting their differences from other types of legal liability (administrative, criminal). Furthermore, the article provides a comparative study of the advanced experience of developed foreign countries in this field. It proposes scientific suggestions and recommendations for improving the financial system of the Republic of Uzbekistan, ensuring the proportionality of sanctions, and increasing the effectiveness of legal regulation.

**Keywords:** financial liability, financial sanction, tax offense, budget discipline, comparative legal analysis, foreign experience, financial and legal norm, types of liability.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье теоретически и практически исследуются понятие, специфические особенности и виды финансово-правовой ответственности. Анализируются механизмы применения финансово-правовых санкций в национальном законодательстве, освещаются их отличия от других видов юридической ответственности (административной, уголовной). Также в

статье проводится сравнительный анализ передового опыта развитых зарубежных стран в данной сфере, выдвигаются научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию финансовой системы Республики Узбекистан, обеспечению соразмерности санкций и повышению эффективности правового регулирования.

**Ключевые слова:** финансовая ответственность, финансовая санкция, налоговое правонарушение, бюджетная дисциплина, сравнительно-правовой анализ, зарубежный опыт, финансово-правовая норма, виды ответственности.

**KIRISH.** Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar sharoitida moliya tizimining barqarorligini ta‘minlash va davlat byudjeti daromadlarini huquqiy himoya qilish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da qonun ustuvorligini ta‘minlash va iqtisodiyotda davlat aralashuvini kamaytirish, shu jumladan, tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy huquqlarini himoya qilish alohida ta‘kidlangan. Shuningdek, moliyaviy-huquqiy javobgarlik instituti moliya huquqining eng muhim va bahsli bo‘limlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Uning dolzarbligi shundaki, milliy qonunchilikda moliyaviy sanksiyalarning huquqiy tabiati hali ham ma‘muriy javobgarlik bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘riladi. Biroq, xalqaro tajriba va huquqiy doktrina moliyaviy-huquqiy javobgarlikni alohida mustaqil tur sifatida e‘tirof etishni talab qiladi. Qo‘shimcha qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining moliya tizimini isloh qilish sharoitida moliyaviy-huquqiy javobgarlikning huquqiy tabiatini aniqlash va uning qo‘llanilish mexanizmlari dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu institutning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining **Soliq kodeksi, Byudjet kodeksi** va “**Valyutani tartibga solish to‘g‘risida**”gi Qonunlarida o‘z aksini topgan.

**Moliyaviy-huquqiy javobgarlik nima ?** — bu moliya-huquqiy normalarida belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik natijasida kelib chiqadigan, huquqbuzarga nisbatan mulkiy xarakterdagi sanksiyalarni (penya, jarima) qo‘llashda ifodalanadigan maxsus huquqiy munosabatdir. Uning o‘ziga xosligi shundaki, u boshqa javobgarlik turlaridan (ma‘muriy, jinoiy) farqli o‘laroq, nafaqat jazolash, balki davlatning boy berilgan iqtisodiy manfaatlarini tiklash (kompensatsiyaviy) funksiyasini ham bajaradi. Shu bois, Milliy amaliyotdagi qonunlarda, **Soliq kodeksining 218-moddasida** belgilangan moliyaviy sanksiyalar tizimini misol tariqasida keltirish mumkin. Mazkur normaga ko‘ra, soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganda tadbirkorlik sub’ektiga nisbatan moliyaviy jarimalar qo‘llaniladi. Biroq, ushbu jarayonda huquqiy

doktrinaning eng muhim prinsiplaridan biri — “**non bis in idem**” (bir ayb uchun ikki marta jazolamaslik) prinsipiga rioya etish hisoblanadi

Xususan, amaldagi qonunchilikka ko‘ra, bitta soliq huquqbuzarligi uchun:

1. **Yuridik shaxsga** nisbatan Soliq kodeksi asosida moliyaviy sanksiya qo‘llaniladi;
2. **Mansabdor shaxsga** (direktor yoki buxgalter) nisbatan Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning tegishli moddalari bilan ma‘muriy jarima solinadi.

Garchi sub‘ektlar turlicha yuridik va jismoniy shaxs bo‘lsa-da, iqtisodiy mazmun jihatidan jazo chorasi bitta huquqbuzarlik ob‘ekti — tadbirkorlik faoliyati natijasiga qaratilgan bo‘ladi. Bu esa xorijiy davlatlar, xususan, Germaniya va Fransiya kabi mamlakatlar tajribasidan tubdan farq qiladi. Rivojlangan davlatlar huquq tizimida "dualistik jazolash" modelidan voz kechilib, asosiy urg‘u iqtisodiy sanksiyaning mutanosibligiga va uning tadbirkorlik faoliyatini to‘xtatib qo‘ymasligiga qaratiladi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy javobgarlik tizimini takomillashtirishda “**voluntary disclosure**” mexanizmini kengaytirish lozim. Agar sub‘ekt xatoni o‘zi aniqlab, byudjet oldidagi qarzini ixtiyoriy to‘lasa, unga nisbatan jarimalarni bekor qilish — davlat va biznes o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Qo‘shimcha qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida moliya-huquqiy normalarni modernizatsiya qilish jarayonida rivojlangan xorijiy davlatlarning ushbu sohada yondashuvlarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. G‘arbiy Yevropa va AQSh huquqiy tizimlarida moliyaviy javobgarlik faqat jazo (punitive) chorasi emas, balki qat‘iy tarzda “**tiklovchi**” (**compensatory**) xarakterga ega bo‘lgan institut sifatida rivojlangan. Xorij tajribasi sifatida Germaniya va AQSHni oladigan bo‘lsak: **Germaniya tajribasi**; Mazkur davlatda soliq va moliya huquqbuzarliklariga nisbatan yondashuv o‘ziga xos pragmatizmi bilan ajralib turadi. Germaniyada moliyaviy intizomni buzish holatlari, agar ular o‘ta yirik miqdordagi qasddan qilingan jinoyat bo‘lmasa, iqtisodiy jinoyat sifatida emas, balki moliya organlari tomonidan ko‘rib chiqiladigan “**maxsus huquqiy oqibat**” sifatida baholanadi. Germaniya Soliq kodeksiga (Abgabenordnung – AO) ko‘ra, tizimning asosiy maqsadi — yetkazilgan zararni tezkorlik bilan qoplashdir. Bu esa moliya organlariga sud tizimini ortiqcha yuklamasdan, ma‘muriy tartibda masalalarni hal qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash imkonini beradi. **AQSh tajribasi**; Amerika huquq tizimida moliyaviy sanksiyalarning o‘ta moslashuvchan mexanizmi amal qiladi. Ayniqsa, “**Ixtiyoriy ravishda xatoni tuzatish**” (**Voluntary Disclosure Practice**) tizimi xalqaro miqyosda tan olingan samarali modeldir. Ushbu mexanizmga ko‘ra, agar soliq to‘lovchi o‘z xatosini davlat nazorati organlari aniqlamasidan avval ixtiyoriy ravishda tan olib, hisobotlarini tuzatsa va yetkazilgan zararni (asl qarz va hisoblangan foizlarni) to‘lasa, u jinoiy ta‘qibdan va og‘ir moliyaviy sanksiyalardan deyarli to‘liq ozod qilinadi. Bu

nafaqat byudjetga mablag‘larning tezroq tushishini ta‘minlaydi, balki davlat va tadbirkor o‘rtasidagi “ishonch huquqi”ni (trust law) mustahkamlaydi.

Zamonaviy xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda moliyaviy javobgarlikning asosiy maqsadi sub‘ektni jazolash emas, balki davlatning buzilgan iqtisodiy manfaatlarini tiklash va soliq intizomini mustahkamlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston qonunchiligida ham moliyaviy sanksiyalarning represiv xarakterini kamaytirib, ularning tiklovchi va rag‘batlantiruvchi funksiyalarini kuchaytirish zarurati mavjud. Qiyosiy-huquqiy tahlillar natijasida Germaniya va AQSh tajribasi moliyaviy javobgarlik tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan tadbirkorlik sub‘ektlari bilan davlat o‘rtasidagi ishonchli hamkorlikka bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, AQShdagi “*Voluntary Disclosure*” instituti soliq to‘lovchilarning xatolarni ixtiyoriy ravishda bartaraf etishini rag‘batlantiradi hamda iqtisodiyotning “soya sektori” qisqarishiga xizmat qiladi. Shu sababli, O‘zbekiston Soliq kodeksining 221-moddasini kengaytirish va ixtiyoriy ravishda xatoni tuzatgan sub‘ektlarni barcha turdagi moliyaviy sanksiyalardan ozod qilish mexanizmini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, moliyaviy-huquqiy javobgarlikni qo‘llashda “non bis in idem”, ya‘ni “bir ayb uchun ikki marta jazolamaslik” prinsipiga qat‘iy amal qilinishi lozim. Chunki korxonaning o‘ziga yirik moliyaviy sanksiya qo‘llanilgan holatda mansabdor shaxsga qo‘shimcha ma‘muriy jazo tayinlanishi iqtisodiy jihatdan ham, huquqiy jihatdan ham asosli emas. Ushbu prinsipni milliy qonunchilikka samarali joriy etish tadbirkorlik faoliyatining huquqiy himoyasini kuchaytiradi hamda davlat organlari faoliyatida adolat tamoyillarini ta‘minlaydi. Shuningdek, moliyaviy huquqbuzarliklarning bir qismini jinoyat-huquqiy sohadan ma‘muriy-moliyaviy sohaga o‘tkazish orqali dekriminalizatsiya jarayonlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tadbirkorlik faoliyatiga ortiqcha jinoiy bosimni kamaytirib, iqtisodiy erkinlikni kengaytiradi. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes sub‘ektlari uchun qulay huquqiy muhit yaratish mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Moliyaviy sanksiyalarni qo‘llashda sud nazoratining kuchaytirilishi ham dolzarb masalalardan biridir. Nazorat organlari tomonidan sanksiyalar qo‘llashdagi sub‘ektivizmni kamaytirish, nizolarni mustaqil sud organlari orqali ko‘rib chiqish tadbirkorlarning davlatga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tamoyillarining mustahkamlanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy-huquqiy javobgarlik institutini takomillashtirish uchun sanksiyalarni liberallashtirish, ularning tiklovchi funksiyasini kuchaytirish, ma‘muriy va moliyaviy javobgarlik o‘rtasidagi takroriylikni bartaraf etish hamda ixtiyoriy ravishda xatolarni tuzatishni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni keng joriy etish zarur. Mazkur islohotlar mamlakatning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash, investitsion jozibadorlikni

oshirish va huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. **O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.** – Toshkent: Adolat, 2020.
3. **O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi.** – Toshkent: Adolat, 2014.
4. **O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.** – Toshkent: Adolat, 1995.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi **“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.**
6. **Abgabenordnung (AO) – Germany Tax Code.** (Germaniya Soliq kodeksi ma'lumotlari uchun).
7. **Internal Revenue Service (IRS) Voluntary Disclosure Practice.** Official website of the U.S. Department of the Treasury. (AQSh tajribasi uchun).
8. Rustambekov I.R. **Moliya huquqi.** Darslik. – Toshkent: TDYU, 2021.
9. Gulyamov S.S. **Iqtisodiy huquqbuzarliklar va ularning huquqiy oqibatlari.** O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
10. Karabaev M. **Moliyaviy-huquqiy javobgarlik: nazariya va amaliyot.** Ilmiy maqola // Huquq va burch. – Toshkent, 2023. – №4.
11. Satvaldiyeva Y. **Soliq huquqbuzarliklari uchun javobgarlikni liberallashtirish masalalari.** // O‘zbekiston qonunchiligi tahlili. – 2022.